


Ulug' G'ulomov tavalludining 85 yillik xotira-yubileyi o'tkazildi



2018-yil 15-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida tanikli olim, O'zR FA muxbir a'zosi, professor, Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi G'ulomov Ulug' G'afurovich tavalludining 85 yillik xotira-yubileyiga bag'ishlangan ilmiy seminar bo'lib o'tdi. Unda Institut faxriylari, olimning oila a'zolari, hamkasblari, do'stlari, O'zR FA Fizika-texnika instituti hamda O'zbekiston Milliy universiteti

yetakchi olimlari ishtirok etdi.

Seminarda Ulug' G'ulomovning hayot yo'li, ilmiy izlanishlari haqida gapirilar ekan, uning ajoyib inson bo'lganligi, nafaqat Institut rivojiga balki, ilm-fan ravnaqiga katta hissa qo'shganligi ta'kidlandi.

Olimning o'g'li A.U.G'ulomov otasi haqidagi samimiy xotiralar hamda shunday xotira kechalari an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotganligi uchun Institut jamoasiga o'z minnatdorchiligini bildirdi.